**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI**

**BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**
**O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti rektori**

**_____________ A.Mansurov**

**2024 yil "30" avgust**

*Ro'yxatga olindi: № BD 60211500-1.01*

# ESTRADA CHOLG'USIDA IJROCHILIK

(Damli cholg'ular)

# O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **200 000 - San'at va gumanitar fanlar** |
| **Ta'lim sohasi:** | **210 000 - San'at** |
| **Ta'lim yo'nalishi** | **60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari** |

**Toshkent – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>ECHI1817</td><td>O'quv yili<br>2024 – 2025</td><td>Semestr<br>1-8</td><td colspan="2">ECTS-Kreditlar<br>17</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta'lim tili<br>O'zbek/rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>2</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta'lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Estrada cholg'ularida ijrochilik</td><td>240</td><td>270</td><td>510</td></tr>
</table>

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Bakalavriat ta'lim bosqichi uchun tuzilgan mazkur dastur - bakalavriat ta'lim yo'nalishining Estrada cholg'ulari, truba, saksofon, trombon ixtisosligi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan. Dastur davlat ta'lim standartlariga binoan san'at sohasida bakalavrlar tayyorlash o'quv rejalari asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda foydalaniladi.

Estrada cholg'ulari ijrochiligi fani yakka estrada ijrochi, cholg'u o'qituvchisi sifatida mustaqil kasbiy ish faoliyat ko'rsatadigan, yuqori musiqa ijrochilik mahoratiga ega kadrlarni tayyorlash uchun muhim o'rin tutadi. Talabaning asosiy rahbari hisoblangan mutaxassis o'qituvchi uni faqat professionalgina emas, balki jamiyatning badiiy didini, ilg'or estrada musiqa san'atini ommalashtira oladigan faol madaniyat arbobini ham tayyorlaydi.

Mazkur fan yuzasidan qo'yilgan asosiy maqsad - talaba estrada cholg'u ijrochiligi, yakkaxon ijrochilik, ansambl, orkestr cholg'ulari, jahon va o'zbek estrada va djaz musiqa merosi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi lozim.

Estrada cholg'ulari ijrochiligi fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli zamonaviy yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, uning o'ziga xos jihatlarini to'la namoyon etishi, kompozitorlar uslubida ixtisoslashuv cholg'usi ijrochiligiga oid barcha boyliklardan foydalangan holda sozandaga saboq berish, yakka cholg'u ijrochiligiga, milliy ijrochilik uslubini qo'llay bilish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqa sohasidagi o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, teatr va studiyalarda, turli ijodiy jamoalarda, musiqiy va san'at, madaniyat muassasalarida ishlash ko'nikmalarini olishlari zarur.

## II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

## II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### I semestr

**1-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; Avval o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni takrorlash; Estrada ijrochiligi tarixi; Estrada yo'nalishida dunyoga mashxur sozanda ijrochilar ijro dasturi bilan tanishish;

**2-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; Ijrochi sozanda uchun gavdani to'g'ri tutish; barmoqlarning erkin harakatini taminlash; ijrochi holatini tog'ri tashkil qilish; damli cholg'ular ijrochilarida ijrochi nafasini tog'ri yo'lga qo'yish;

**3-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; Estrada yo'nalishida ijro qiladigan ijrochilar uchun harf tizimi ahamiyatini tushuntirish; improvizatsiya uchun harf tizimini qulayliklarini o'rganish; harf tizimining ijro yo'llarini o'rganish; harf tizimini amalda qo'llash.

**4-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; Ijrochi ijro paytida ovozning rang barangligini ko'rsata olishi; ovozning tembr jihatlarini o'rganish; tovushlarning dinamik xususiyatlarini o'rganish; musiqiy intonatsiya va tomoshabin ongini jalb eta olish.

**5-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; Gammalar ijrosi orqali barmoq texnikasi, til va nafas orqali shtrixlar ijrosini rivojlantirish; gammalarni xar hil shtrixlarda ijro etish; gammalar ijrosi orqali ijrochi nafasini to'g'ri shakllantirish. Arpedjio va dominantseptakkordlar ijrosi orqali barmoq texnikasi, miyya faoliyati davomida tezkor qaror chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

**6-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; Turli xarakterdagi 2 ta etyud; Yirik shakldagi asar; Polifonik asar; Kichik shakldagi zamonaviy yo'nalishdagi 2 ta asar (djaz va estrada yo'nalishi) ijrosini tanlash.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat: ijro texnikasini, ovoz va tembr imkoniyatlarini, barmoq va til attakasini ko'rsatish uchun bajarilgan ishlarni baholash:

- Turli xarakterdagi Jahon va o'zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan turli xarakterli 5 ta etyud.
- 4 belgigacha bo'lgan gammalar, uchtovuchliklar aylanmalari, $D_7$ va uning aylanmalarini ijro etish.

**7-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; **Dinamik belgilar ustida ishlash.** Dinamik belgilar ustida ishlash; dinamik belgilar orqali ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish; tovush tembri; tovush tebranish balandligini nazorat qilish.

**8-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; **Ijro uslublari.** Estada san'ati ijro uslublarining o'ziga xosligi; ijro uslublarini taxlil qilish; xar bir ijro uslubining temp, o'lchov, usul, shtrixlarini o'rganish.

**9-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; **Estrada ijrochilarida mustaqil improvizatsiya ijro etish qobiliyatini rivojlantirish.** Har bir ijrochida mustaqil improvizatsiya qila olish qobiliyatini rivojlantirish; improvizatsiya orqali ritm , garmoniya, uslublarni xis etish va moslasish, improvizatsiya orqali ichki xis tuyg'ularni amalda ko'rsata bilish.

**10-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; **Ijrochida konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish.** Ijrochi yakka solist sifatida o'zini ko'rsatishi; ansambl va orkestrlar bilan birga ijro eta olishi, yakka ijrochi sifatida namoyon etishi, jamoada yetakchilik qobiliyatini ko'rsata olishi.

**11-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; **Turli zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishuv.** Estrada ijrochiligida zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishish, yo'nalishlarni taxlil qilish, zamonaviy guruhlarda Estrada cholg'ularining o'rni.

**12-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; **Ijrochilarda jo'rnavozlik qobiliyatini rivojlantirish**.

Ijrochi o'zidan boshqa sozandalarni ham tinglab, ular bilan birga ijro etish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ansambl va orkestrda ijro paytida barcha sozandalar bir-birlarini eshitishi va ritm, soz, va tempni o'zaro xis qilishi lozim.

**13-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; **Ijro texnikasini rivojlantirish.** Ijro texnikasini rivojlantirish ustida talaba bilan muntazam ravishda ish olib borish darkor. Qo'shimcha applikatura orqali yuqori pardadagi notalarni ijrosini taminlash, qo'sh stakatto ijro etgan paytdagi til attakasi, ijrochi nafasini yangi bosqichga olib chiqish. Xalq ladlari va boshqa lad yo'llarini o'zlashtirish.

**14-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzular; **Asarlarni tinglab taxlil qilish.** Turli xil zamonaviy yo'nalishdagi asarlarni taxlil qilib, xar bir yo'nalishni o'ziga hos hususiyatlarini o'rganish va amalda qo'llash.

**15-mavzu. Asosiy mavzu**

Mavzu: O'zbek va Jahon kompazitorlari ijodini o'rganish. Ularning asarlaridagi o'ziga hosligini aniqlash.

**Yakuniy nazorat**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

- 1-ta ko'p qismli virtuoz kontsert yoki sonata,
- 2 ta jaz standartlaridan pyesa.

**II semestr**

**1-mavzu. Jahon va O'zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan turli xarakterli asarlar bilan tanishish.**

Talabalarga Jaxon va O'zbek kompozitorlarining damli cholg'ular uchun yaratilgan pyesalari xaqida to'liq ma'lumot berish. Shu bilan birga taniqli pianistlar ijrosini tinglash.

**2-mavzu. Jaz pyesalar ustida ishlash.**

Ijro dasturidagi obrazi, xarakterini me'yoriga yetkazish.

Talabalarda umummusiqiy tushunchalarni rivojlantirish. Notadan o'qish, tinglab ijro etib berish.

**3-mavzu. Musiqani tinglash va musiqa matnining arxitektonikasini o'zlashtirish.**

Shtrix va applikatura ustida ishlash. Dinamik belgilarga e'tibor qaratish.

**4-mavzu. Tovush asosiy tamoyillari, tovush go'zallik ustida ishlash.**

Ijro etilayotgan asarlarni qismlarga, qismlarni jumla va frazalarga bo'lish orqali musiqani aniq tovushlar bilan ijro etish.

**5-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash jarayonida ularni o'rni. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish.

**6-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat: Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

- Turli xarakterdagi Jahon va o'zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan turli xarakterli 2 ta pyesa.

**7-mavzu. Ijrochilik maxoratini rivojlantirish uchun repertuarni tanlash.**

Repertuar tanlash. Talabalarda umummusiqiy tushunchalarni rivojlantirish. Notadan o'qish, tinglab chalib berish.

**8-mavzu. Polifonik asarlar ustida ishlash.**

Musiqani tinglash va ko'povozlik musiqa matnining garmonik va ansambl hususiyatlarini o'zlashtirish.

**9-mavzu. Yirik shakldagi asar taxlili. Asar ustida ishlash.**

Axborot resurslaridan foydalanish. Turli janrda yozilgan yirik shakldagi asarlar bilan tanishish. Talabalarni yirik shakldagi asarlar ustida ijod qilgan kompozitorlar bilan tanishtirish.

**10-mavzu. Jaz tarkibiga kiruvchi yo'nalishlar.**

Jaz musiqasi tarkibiga kiruvchi yo'nalishlar, ijro uslublari, ijro davomida qo'llaniladigan shtrixlar.

**11-mavzu. Kontsert etyud ustida ishlash va badiiy obraz yaratish.**

Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, til attakasi, ijrochi nafasi, dinamika va ovoz tembirini xis etish. Etyudlarda barmoq texnikasi, shtrixlar orqali ijrochi nafasi va til attakasini yaxshilash.

**12-mavzu. Mustaqil improvizatsiya ijro etish.**

Turli usullar mustaqil improvizatsiya ijro etish. Malum bir garmoniya yoki tovushqator orqali berilgan kichik mavzudagi jumlaga mos mustaqil improvizatsiya ijro etish qobiliyatini shakllantirish.

**13-mavzu. Ijrochida ansambl ijrochiligi qobiliyatini rivojlantirish**

Ijrochida ansambl ijrochiligi qobiliyatini rivojlantirish. Jamoa bo'lib ijro etilganda umumiy soz, ritm, dinamikani xis etish. Ansambl rahbari yoki solistni tinglay olish, jamoada bir ovoz bo'lib ijro etish qobiliyatini rivojlantirish.

**14-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Past o'zlashtiruvchi talabalar bilan turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**15-mavzu. Musiqiy asarlarning badiiy obrazlarini yaratish.**

Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Katta shaklda yozilgan ko'p qismli sonata yoki konsert.
2. Jaz yo'lishida yozilgan 2 ta pyesa.
3. Jaz standartlaridan1-ta kichik mavzuga mustaqil improvizatsiya.

**III semestr.**

**1-mavzu. Ijrochilik maxoratini rivojlantirish uchun repertuarni tanlash.**

Repertuar tanlash. Talabalarda umummusiqiy tushunchalarni rivojlantirish. Notadan o'qish, tinglab chalib berish. Musiqiy ijrochilik malakasining to'g'ri rivojlanishida tanlangan repertuarning o'rni.

**2-mavzu. O'zbekiston kompozitorlarining tanlangan asarlari ustida ishlash.**

O'zbek kompozitorlarining damli cholg'ular uchun yaratgan pyesalar xaqida to'liq ma'lumot berish. Shu bilan birga taniqli damli cholg'ular ijrochilari ijrosini tinglash.

**3-mavzu. Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.**

Ovoz, nafas, til va nafas zarbi tamoyillari. Intonatsiya ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**4-mavzu. O'zbekiston kompozitorlar asarlarining badiiy obrazlarni yaratish.**

Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**5-mavzu. Shakllini tushunib, O'zbekiston kompozitor asarlarining ijro etish.**

Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

- Turli xarakterdagi o'zbek kompozitor tomonidan yaratilgan xarakterli pyesa.

**6-mavzu. Polifonik janrda ishlagan kompozitorlar xaqida ma'lumot berish.**

Polifonik asarlar – konsertlar, prelyudiya va sonata, syuitalar. Tanlangan syuita ustida ishlash – qismlar, butunligi. Musiqani tinglash va ko'povozlik musiqa matnining arxitektonikasini o'zlashtirish.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat: gamma va etyudlar orqali ijro imkoniyatlarini ko'rsatish.

- Turli xarakterdagi Jahon va Rus kompozitorlari tomonidan yaratilgan turli xarakterli 5 ta etyud.
- 5 belgigacha bo'lgan gammalar. Uchtovushlik aylanmalari. $D_7$ va uning aylanmalari.

**7-mavzu. Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.**

Tembrlar, ijrochilikning tovushli sinxronligi, tovush orasidagi balans ustida ishlash.

**8-mavzu. Syuita shaklini tushunib ijro etish.**

Ijro etilayotgan musiqiy asarlar shakli xaqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. Turli kompozitorlar tomonidan musiqiy syuita shaklda yaratilgan asarlar bilan tanishish.

**9-mavzu. Musiqiy uslublar.**

Tovush, ritmik, melizm, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**10-mavzu. Kontsert etyudlar ustida ishlash va badiiy obraz yaratish.**

Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, zarb tamoyillari. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**11-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish. Turli usullar musiqiy frazalar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**12-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Axborot resurslaridan foydalanish. Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash ustida ularni o'rni. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish.

**13-mavzu. Semestrda ijro etiladigan asarlarning badiiy obrazlarini yaratish.**

Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**14-15-mavzu. Sahnaga chiqishga tayyorlanish.**

Asarlarni yaxlit o'zlashtirish ustida ishlash. Musiqiy asarlarning shaklini tushunib va o'zlashtirib ijro etish. Sahnaga chiqishga psixologik tayyorlanish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Yirik shakladagi konsert yoki sonata;
2. 2-ta virtuoz estrada uslubidagi pyesa

**IV semestr.**

**1-mavzu. Jahon va O'zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan turli xarakterli asarlar bilan tanishish.**

Talabalarga Jahon va O'zbek kompozitorlarining damli cholg'ular uchun yaratilgan pyesalar xaqida to'liq ma'lumot berish. Shu bilan birga taniqli ijrochilar ijrosini tinglash.

**2-mavzu. Pyesalar ustida ishlash.**

Badiiy obrazi, xarakterini me'yoriga yetkazish. Talabalarda umummusiqiy tushunchalarni rivojlantirish. Notadan o'qish, tinglab ijro etish.

**3-mavzu. Musiqani tinglash va musiqa matnining arxitektonikasini o'zlashtirish.**

Shtrix va applikatura ustida ishlash. Dinamik belgilarga e'tibor qaratish.

**4-mavzu. Tovush asosiy tamoyillari, tovush go'zallik ustida ishlash.**

Ijro etilayotgan asarlarni qismlarga, qismlarni jumla va frazalarga bo'lish orqali musiqani aniq tovushlar bilan ijro etish.

**5-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash jarayonida ularni o'rni. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish.

**6-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat: Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

- Turli xarakterdagi Jahon va O'zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan turli xarakterli 2 ta pyesa.

**7-mavzu. Jaz uslublari.**

Talabalarga Jaz musiqasi tarkibiga kiruvchi uslublarning o'ziga hosligini aniqlash va ushbu uslubdagi asarlarni tinglab taxlil qilish, xar bir yo'nalishlarning mohir ijrochilari tomonidan ijro etilgan asarlarni tinglab o'rganish.

| | |
|---|---|
| | **8-mavzu. Polifonik asarlar ustida ishlash.**<br>Musiqani tinglash va ko'povozlik musiqa matnining arxitektonikasini o'zlashtirish.<br>**9-mavzu. Yirik shakldagi asar taxlili. Asar ustida ishlash.**<br>Axborot resurslaridan foydalanish. Damli cholg'ular uchun kontsert yoki sonata klassik janrlarida yozilgan yirik shakldagi asarlaridan tanlash.<br><br>**10-mavzu. Jaz standartlarini o'zlashtirish.**<br>Jaz standartlariga aylangan asarlardan o'rganish. Standart kvadratlari, garmoniya va uslub xususiyatlari, lad va tovushqator, uslublarning oziga xos xalq ladlari.<br><br>**11-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**<br>Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash ustida ularni o'rni. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish.<br><br>**12-mavzu. Kontsert etyudlar ustida ishlash va badiiy obraz yaratish.**<br>Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, jo'rnavoz bilan birga ansambl bo'lib ijro etish, zarb tamoyillari. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.<br>**13-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**<br>Past o'zlashtiruvchi talabalar bilan turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish. Turli usullar musiqiy frazalar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.<br><br>**14-mavzu. Musiqiy asarlarning badiiy obrazlarni yaratish.**<br>Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.<br><br>**15-mavzu. Sahnaga chiqishga tayyorlanish.**<br>Asarlarni yaxlit o'zlashtirish ustida ishlash. Musiqiy asarlarning shaklini tushunib va o'zlashtirib ijro etish. Sahnaga chiqishga psixologik tayyorlanish.<br><br>**Yakuniy nazorat.**<br>Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish: |

1. Klassik sonata yoki kontsert asarini butunligicha ijro etish;
2. 2-ta Estrada uslubidagi asar.

**V semestr.**

**1-mavzu. Ijrochilik maxoratini yanada rivojlantirish uchun repertuarni tanlash.**

Repertuar tanlash. Talabalarda maxsus musiqiy tushunchalarni rivojlantirish. Notadan o'qish, tinglab ijro etish. Musiqiy ijrochilik malakasining to'g'ri rivojlanishida tanlangan repertuarning o'rni.

**2-mavzu. Zamonaviy kompozitorlarining tanlangan asarlari ustida ishlash.**

Zamonaviy kompozitorlarining damli cholg'ular uchun yaratilgan pyesalar xaqida to'liq ma'lumot berish. Shu bilan birga taniqli ijrochilar ijrosini tinglash.

**3-mavzu. Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.**

Ovoz, zarb tamoyillari. Intonatsiya ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**4-mavzu. Zamonaviy kompozitorlar asarlarining badiiy obrazlarini yaratish.**

Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash.

**5-mavzu. Shakllini tushunib, zamonaviy kompozitor asarlarining ijro etish.**

Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. Ijro texnikasini rivojlantirish uchun bajarilgan ishlarni natijasini baholash.

- Turli xarakterdagi zamonaviy kompozitor tomonidan yaratilgan 5 ta etyud.
- 6 ta belgigacha bo'lgan gammalarni uchtovushlik aylanmalari, $D_7$ aylanmalari bilan ijro etish.

**6-mavzu. Yirik shakldagi asar taxlili. Asar ustida ishlash.**

Axborot resurslaridan foydalanish. Yirik shakldagi klassik asarlardan tanlash – sonata, variatsiyalar yoki kontsert.

**7-mavzu. Sonata, variasiyalar yoki kontsert ustida ishlash.**

Yirik asarning tuzilishi va shakli ustida ishlash. Asarni mustaqil ijro etishni o'zlashtirish. Ijrochilikning usulbiy muammolari. Shtrixlar, dinamika, chalish usullari va shtrixlar ustida ishlash.

**8-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash ustida ularni o'rni. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish.

**9-mavzu. Yirik shakldagi asarni badiiy obrazini yaratish.**

Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalshishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**10-mavzu. Romantik va zamonaviy kompozitorlarning yirik shakldagi pyesalarini o'rganish va ijro etish.**

Odatda tayyor bo'lgan asarlardan maxsus dastur tuzilib, ijodiy va hisobot kontsertlariga tayyorlanadi. Bunda asarning qanday tartibda ijro etilishi, shuningdek sahna madaniyatini tarbiyalash, va muallif ko'rsatmalariga qa'tiy rioya qilish, tartib-intizom masalalariga alohida e'tibor qaratish muhim. Repertuarni shakllantirishda dasturga kiritiladigan asarlarning rang-barang bo'lishi, ularning temp, xarakter, usul jihatidan farqlanishiga, shuningdek repertuarda faqat bir yo'nalishdagi (faqat milliy yoki faqat Yevropa kompozitorlari) asarlaridan foydalanmaslik masalalari ham muhim. Bu asarlarni muntazam o'rganib, ijro uchun mukammal tayyorlash kerak bo'ladi. Asarlar yoddan ijro etiladi.

**11-mavzu. Yirik shakldagi pyesalar ustida ishlash va badiiy obrazini yaratish.**

Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, shtrix, zarb tamoyillari. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**12-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish. Turli usullar musiqiy frazalar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**13-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Axborot resurslaridan foydalanish. Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash ustida ularni o'rni. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish.

**14-mavzu. Semestrda ijro etiladigan asarlarining badiiy obrazlarini yaratish.**

Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**15-mavzu. Sahnaga chiqishga tayyorlanish.**

Asarlarni yaxlit o'zlashtirish ustida ishlash. Musiqiy asarlarning shaklini tushunib va o'zlashtirib ijro etish. Saxnaga chiqishga psixologik tayyorlanish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Klassik uslubdagi sonata yoki konsert yoki variasiyalar, yoki L.Betxovenning kontserti;
2. Kontsert asarini ijro etish.

**VI semestr.**

**1-mavzu. F.Shopenning kontsert etyudlar ustida ishlash va badiiy obrazini yaratish.**

Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, zarb tamoyillari. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**2-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish. Turli usullar musiqiy frazalar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash

**3-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Axborot resurslaridan foydalanish. Turli usullar orqali ritm va metr kamchiliklarni bartaraf etish. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish.

**4-mavzu. Mustaqil improvizatsiya ijro etish malakasini oshirish.**

Turli usullar orqali improvizatsiya ijro etish malakasini oshirish. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

- Estrada uslubidagi 2 ta pyesa.

**5-mavzu. Tanlangan polifonik asar ustida ishlash (qayta taxrir bo'lishi xam mumkin).**

Tembrlar, ijrochilikning tovushli sinxronligi, tovush orasidagi balans ustida ishlash.

**6-mavzu. Polifonik asar shaklini tushunib ijro etish.**

Ijro etilayotgan musiqiy polifonik asarni shakli xaqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish.

**7-mavzu. Polifonik asar badiiy obrazini yaratish.**

Tovush, ritmik, melizm, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**8-mavzu. Yirik shakldagi asarlar (fantaziya, variatsiya, sonata va boshqalar) ustida ishlash.**

Ijro etilayotgan asarlarni qismlarga, qismlarni jumla va frazalarga bo'lish orqali musiqani aniq tovushlar bilan ijro etish. Tovush go'zallik ustida ishlash. Jo'rnavoz bilan ijro etayotganda ansamblb ijrochiligi qobiliyatlarini rivojlantirish.

**9-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash jarayonida o'rni. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish. Asarni mustaqil ijro etishni o'zlashtirish.

**10-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish. Turli usullar musiqiy frazalar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**11-mavzu. Zamonaviy ijrochilar ijro uslublarini o'rganish.**

Bugungi kunda zamonaviy uslublarda ijro etuvchi ijrochilarning ijro uslublarini taxlil qilish, o'ziga xos jihatlarini aniqlab o'rganish va o'zlashtirish.

**12-mavzu. Yirik shakldagi pyesalar ustida ishlash, badiiy obrazlarini yaratish va texnik mukammalligini oshirish.**

Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, zarb tamoyillari. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**13-mavzu. Harf sistemasida ijro etish.**

Estrada va jaz uslubidagi asarlarni harf sistemasida ijro etish. Garmoniya va lad uyg'unligini taminlash.

**14-mavzu. Semestrda ijro etiladigan asarlarining badiiy obrazlarini yaratish.**

Tovush, ritmik, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**15-mavzu. Sahnaga chiqishga tayyorlanish.**

Asarlarni yaxlit o'zlashtirish ustida ishlash. Musiqiy asarlarning shaklini tushunib va o'zlashtirib ijro etish. Sahnaga chiqishga psixologik tayyorlanish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Tanlangan polifonik asar (qayta taxrir bo'lishi ham mumkin),
2. Yirik shakldagi asar (fantaziya, variatsiyalar, sonata, kontsert va boshqalar),
3. Kontsert asari ijro etish.

Izoh: asarlar turli stilistik yo'nalishlarda bo'lishi shart.

**VII semestr.**

**Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro.**

**1-2-mavzu. Cholg'uda tovushni yanada tiniq, ravshan ijrosi ustida ishlash.**

Har bir cholg'u o'ziga xos xususiyatga ega. Ularda ijro etishda tovushni ravon, tiniq ijro etish uchun ularni imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan va ularda ijro etish ko'nikmalarini o'zlashtirish talab etiladi. O'qituvchi har bitta talabaga o'z ijrosini mukammal darajada bo'lishiga yordam berishi kerak.

**3-4-mavzu. Polifonik janrdagi asarlar ustida ishlash.**

Bitiruv dasturiga polifonik asarlar (syuitalar, prelyudiya va fugalar) kiritiladi. Talabaga yevropa, rus va o'zbek kompozitorlarining fortepiano uchun polifonik janrda yaratilgan asarlari ustida ishlash. Shu bilan birga taniqli pianistlar ijrosini tinglash.

**5-6-mavzu. Polifonik asar badiiy obrazini yaratish.**

Tovush, pedal, ritmik, melizm, intonatsiya, motiv, fraza, period, shakl ustida chuqur ishlash.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Prelyudiya va fuga (I.S.Bax, D.Shostakovich. R.Shedrin, G.Mushel) yoki Polifonik asar (fuga bilan).

**7-8-mavzu. Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.**

Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**9-10-mavzu. Turli xarakterdagi o'zbek yoki jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan pyesalar.**

Musiqa ijrochiligi ta'limi albatta birinchi galda mohirona ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Turli janrlarda ijro etilayotgan asarlar mazmuniga mos ravishda talqin qilinishi har bir ijrochi oldiga qo'yilgan vazifadir. Bu yo'nalishda samarali natijalar albatta ijro malakalarini oshirishda amalga oshirilgan ishlarga bog'liq. Buning uchun ijro mahoratini yanada shakllantirishga yordam beradigan mashq va etyudlardan foydalanish tavsiya etiladi.

**11-mavzu. Kontsert pyesasini ustida ishlash va badiiy obrazini yaratish.**

Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, pedal, zarb tamoyillari. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**12-mavzu. Klassik, romantik va zamonaviy kompozitorlarning yirik shakldagi (sonata, fantaziya, variasiyalar) asarini o'rganish.**

Repertuarni shakllantirishda dasturga kiritiladigan asarlarning rang-barang bo'lishi uchun o'zbek, rus va yevropa kompozitorlarining asarlardan foydalanish.

**13-mavzu. Sonata ustida ishlash. 1-qismning taxlili.**

Sonata allegrosining uslubi va shakli taxlili. 1-qismning ekspozisiya, razrabotka va reprizasi ustida ishlash. Asarni mustaqil ijro etishni úzlashtirish.

**14-mavzu. Sonata ustida ishlash. 2-qismning taxlili.**

2-qismda tovush, kantilena, pedalizasiya, ifodaliligi ustida ishlash. Asarni mustaqil ijro etishni úzlashtirish. Final ustida ishlash – shtrixlari, dinamikasi ustida ishlash, chalish usullari, pedalizasiya ustida ishlash.

**15-mavzu. Sonata ustida ishlash. 3-qismning taxlili.**

Final ustida ishlash - shtrixlari, dinamikasi ustida ishlash, chalish usullari, pedalizasiya ustida ishlash. Asarni mustaqil ijro etishni úzlashtirish.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Jahon kompozitorlardan yirik shakldagi asar (sonata, fantaziya, variasiyalar),
2. Kontsert asari ijro etish.

**VIII semestr.**

**Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro.**

**1-2-mavzu. Damli cholg'ular va orkestr uchun Kontserti ustida ishlash.**

Damli cholg'ular va orkestr uchun kontsert uslubi va shakli taxlili. 1-qismning ekspozisiya, razrabotka va reprizasi ustida ishlash. Asarni mustaqil ijro etishni o'zlashtirish. Axborot resurslaridan foydalanish.

**3-4-mavzu. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish.**

Cholg'u partiyasida odatda har doim ham ijro uchun zarur bo'lgan shtrixlari ko'rsatilmaydi. Shuning uchun har bitta asar ijrosi davrida o'qituvchi ma'lum notalarni tegishli shtrixda (masalan yakka zarb bilan yoki tremolo) ijro etish lozimligi bo'yicha vazifa qo'yadi va talaba shu shtrixlarga amal qilishini talab qiladi.

**5-6-mavzu. Damli cholg'ular va orkestr uchun kontsertni yoddan ijro etish.**

Repertuarni shakllantirishda dasturga kiritiladigan asarlarning rang-barang bo'lishi, ularning temp, xarakter, usul jihatidan farqlanishiga, shuningdek repertuarda faqat bir yo'nalishdagi (faqat milliy yoki faqat Yevropa kompozitorlari) asarlaridan foydalanmaslik masalalari ham muhim.

**Oraliq nazorat.**

Oraliq nazorat. Asarni mohiyatini tushunib, ifodali ijro etib berish. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Damli cholg'ular va orkestr uchun kontsert (I yoki II-III qism, yoki istalgan boshqa asar va orkestr uchun asar).

**7-mavzu. Barcha asarlar ustida ishlash va badiiy obrazini yaratish.**

Texnika va intonatsiya ustida chuqur ishlash. Ovoz, zarb tamoyillari. Musiqa yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan stilga yaqinlashtirish.

**8-9-mavzu. Metroritm va temp ustida ishlash.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Asar tayyorlash ustida ularni o'rni. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish.

**10-11-mavzu. Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligini oshirish.**

Turli usullar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Kompozitorlar tomonidan berilgan tempga yetkazish. Turli usullar musiqiy frazalar orqali texnik kamchiliklarni bartaraf etish. Garmonik tovushlarni his qilish va ular ustida ishlash.

**12-13-mavzu. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish.**

Musiqa ijrochiligi ta'limi albatta birinchi galda mohirona ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Turli janrlarda ijro etilayotgan asarlar mazmuniga mos ravishda talqin qilinishi har bir ijrochi oldidagi qo'yilgan vazifadir. Bu yo'nalishda samarali natijalar albatta ijro malakalarini o'stirishda amalga oshirilgan ishlarga bog'liq.

**14-mavzu. Sahnaga chiqishga tayyorlanish.**

Asarlarni yaxlit o'zlashtirish ustida ishlash. Musiqiy asarlarning shaklini tushunib va o'zlashtirib ijro etish. Sahnaga chiqishga psixologik tayyorlanish.

**15-Mavzu. Bitiruv dasturidagi asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.**

Bitiruv dasturini tayyorlashda mashqlarning ahamiyati katta. Asarlarni muntazam o'rganib, sahnada ijro etish uchun mukammal tayyorlash kerak bo'ladi. Asarlar yoddan ijro etiladi.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. Jahon kompozitorlardan yirik shakldagi asar (sonata, fantaziya, variasiyalar);
2. O'zbek kompazitorlari asarlari.
3. Estrada yo'nalishidagi 2 ta pyesa;
4. Damli cholg'ular va orkestr uchun pyesa.

**Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish va ixtisoslik fanlaridan**
**Yakuniy davlat attestatsiyasi.**
**Ijro dasturini topshirish:**

1. Jahon kompozitorlardan yirik shakldagi asar (sonata, fantaziya, variasiyalar);
2. O'zbek kompazitorlari asarlari.
3. Estrada yo'nalishidagi 2 ta pyesa;
4. Damli cholg'ular va orkestr uchun pyesa.

**Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish:**

Bitiruv Malakaviy ishlarini baholashda talabalarning bilimi, berilgan mavzuning nazariy tomonidan bilishi, o'ylashi, auditoriyaga o'z fikrini nuqtai nazardan aniq va qiziqarli bildirish jihatlari diqqatga olinadi va shu asosida baholanadi.

**III. Yakka mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

Damli cholg'ularida ijrochilik texnikasi asoslarini o'zlashtirishi, badiiy obraz, ijrochilik xususiyatlar, dinamika va asarni emosional (his-tuyg'uli) ko'rsatib berish ustida ish olib borish, 4 yil davomida damli cholg'ularida ijrochilik texnikasini o'zlashtirishda zarur bo'lgan maxsus malakalar, ijro etish usullari va kompozitor ijodining yo'nalishlari haqida bilimlar rivojlantiriladi. Talabalar oldiga qo'yiladigan vazifalar dastur talablari murakkablashuvi bilan belgilanadi.

Yakka (amaliy) mashg'ulotlar cholg'ular bilan jihozlangn auditoriyada bir talaba uchun professor-o'qituvchi tomonidan dars o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlarda faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Mavzu: Estrada ijrochiligi tarixi;
2. Mavzu: Estrada yo'nalishida dunyoga mashxur sozanda ijrochilar ijro dasturi bilan tanishish.
3. Mavzu: O'zbek va jahon kompazitorlari ijodini o'rganish.
4. Mavzu: Estrada jaz uslublarini o'rganish.
5. Mavzu: Estrada jaz uslublarini taxlil qilish.
6. Mavzu: Ustoz san'atkorlarning ijro namunalarini tinglab o'rganish.
7. Mavzu: Estrada orkestrlari tarkibi bilan tanishish.
8. Mavzu: Ijrochida konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish.
9. Mavzu: Turli zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishuv.
10. Mavzu: Qo'llarni to'g'ri texnik pastanovkasini ko'rsatish

11. Mavzu : Harf sistemasida ijro etish (bukvennaya sistema)
12. Mavzu: Notadan o‘qish malakalarini shakllantirish
13. Mavzu: Ijrochida tinglab taxlil qilish qobiliyatini shakllantirish.
14. Mavzu: Sving, blyuz, ballada, rok, pop kabi uslublarda ijro etishni o‘rganish.
15.Mavzu Dinamik belgilar.
16.Mavzu: Ijrochining yakkaxonlik mahoratini rivojlantirish.
17.Mavzu: Interaktiv uslublardan foydalanish
18.Mavzu: Ijrochida konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish
19.Mavzu: Ijrochida jo‘rnavoz-ilyustratorlik va yakka solist qobiliyatini shakllantirish
20.Mavzu: Ansambl bo‘lib ijro etish.

**IV. Mustaqil ta’lim tashkil etishning shakl va mazmuni.**
**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Mavzu: Estrada ijrochiligi tarixi;
2. Mavzu: Estrada yo‘nalishida dunyoga mashxur sozanda ijrochilar ijro dasturi bilan tanishish.
3. Mavzu: O‘zbek va jahon kompazitorlari ijodini o‘rganish.
4. Mavzu: Estrada jaz uslublarini o‘rganish.
5. Mavzu: Estrada jaz uslublarini taxlil qilish.
6. Mavzu: Ustoz san’atkorlarning ijro uslublarini o‘rganish.
7. Mavzu: Estrada orkestrlari tarkibi bilan tanishish
8. Mavzu: Turli zamonaviy yo‘nalishlar bilan tanishuv.
9. Mavzu : Harf sistemasida ijro etish (bukvennaya sistema)
10.Mavzu: Notadan o‘qish malakalarini shakllantirish
11.Mavzu: Tinglab taxlil qilish qobiliyatini shakllantirish.
12.Mavzu: Sving, blyuz, ballada, rok, pop kabi uslublarda ijro etishni o‘rganish.
10.Mavzu Dinamik belgilar ustida ishlash.
11.Mavzu: Ijrochining yakkaxonlik mahoratini rivojlantirish.
12.Mavzu: Interaktiv uslublardan foydalanish
13.Mavzu: Ijrochida konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish
14.Mavzu: Ijrochida jo‘rnavoz-ilyustratorlik qobiliyatini shakllantirish
15.Mavzu: Ansambl bo‘lib ijro etish.
16.Mavzu: Gammalar, arpedjiolar, dominantseptakkordlar
17.Mavzu: Zamonaviy yo‘nalishlar texnikasini egallash.

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari /Shakllangan kompetensiyalari**<br>*Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak:*<br><br>Estrada-Jazz yo'nalishi xaqida umumiy tushuncha;<br>– Turli yo'nalishdagi musiqalarni o'ziga hosligini aniqlay oladigan sozandalar tayyorlash;<br>– ansambl artistlari va ularni katta sahnaga tayyorlash;<br>– kontsert-ijrochilik ko'nikmalari;<br>– zamonaviy yo'nalishlar haqida tushunchaga ega bo'lish.<br>– ijro repertuariga kiritilgan asarlarni o'zlashtirishi;<br>– notadan o'qish texnikasi ko'nikmalarini rivojlantirishni;<br>– turli xil janrdagi asarlarni taxlil qilish;<br>– tanlangan musiqa cholg'usida ijro ko'nikmalarini rivojlantirish;<br>– mutaxassislik bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash;<br>– ijrochilik mahoratini takomillashtirish; |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>– interfaol keys-stadilar;<br>– treninglar;<br>– bilaman, bilishni xoxlayman, bilib oldim metodi;<br>– Ven diagrammasi metodi;<br>– individual ijro yo'llari;<br>– Ustoz-shogirt an'analari<br>– Klaster tizimi |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha dasturni ijro etib ko'rsatish. |

| | |
|---|---|
| 6. | |


**Asosiy adabiyotlar**

1. M.Shaposhnikova "Shkola igra na saksofone"
2. Saparov V.I, Murtazaev B. Progressivnaya shkola igry na saksafone. T., 2008.
3. Chet el kompazitorlarining truba uchun etyudlari to'plami. Moskva. "Muzika" 1987 yil
4. S.Balasanyan "Shkola igra na trube"Moskva 1982
5. A.Rivchun "Shkola igra na saksofone"
6. J.Arban "Shkola igra na trube" Moskva 1990.
7. E.Vila-Lobos "Djaz etyud" Santa Nyuez 2000
8. L.Neygauz "Jaz etyudlar"
9. A.Nazaryan, N.Norxodjayev "Saksofon"
10. A.Rivchun "50 etyudi dlya saksofon".
11. G.Lakur "etyudlar toplami".
12. N.Soliyev, V.Saparov "Saksofoniana". Toshkent
13. G.Israilov "Trombone v jazovoy muzike"

**Qo'shimcha adabiyotlar**

2. O'. Abdullayev Estrada cholg'ularida o qitish uslubiyoti T.: Musiqa. 108. 2021
3. "Sbornik legkix pesen" Tetrad 3. Moskva 1961.
4. L.Chumov "Perviy shagi trubacha".
5. "Yuniy trubach vertuoz" sbornik pyese dlya truba. Moskva 1966.
6. L.Chumov "Etyudlar" truba cholg'usi uchun.
7. Hans Joacbim Krumpfer "Trumpet studies" 1.
8. L.Chumov "Shkola nachalnogo obucheniya na trube" Moskva 1979.
9. A. Suxix- "Trombon v Jaze"
10. Blajevich "etyudlar"

**Axborot manbalari**

1. http:www.youtube.com
2. www.kultura.uz
3. http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami
4. http://millionsbooks.org
5. http://konservatoriya.uz
6. http:/antoshahaimovich.ru
7. partita.ru

| | |
|---|---|
| 7. | Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislilari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil 30 avgustdagi 1- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan |
| 8. | Fan/modul uchun mas'ullar:<br>**Abdullayev O'.S.** MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi mudiri dotsent.<br>**Israilov G.R.** O'zDK huzuridagi MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi katta o'qituvchisi.<br>**Olimov M.N.** O'zDK huzuridagi MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi o'qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchi:** professori B.M.Murtozoyev. |